Neo Scientific Peer Reviewed Journal
Volume 3, Oct. 2022 ISSN (E): 2949-7752
www.neojournals.com

Kompyuter Lingvistikasining Rivojlanish Tendensiyasi

Esonov Rustamjon Rahmonali o'g'li
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Qo'qon filiali o'qituvchisi
esonovrustamjon@gmail.com

Abstract:

Ushbu maqolada kompyuter lingvistikasining rivojlanishi, kompyuter lingvistika imkoniyatlari va kompyuter lingvistikasining asosiy vazifalari haqida so`z yuritiladi

Keywords:

statistik tahlil, lingvistik ta'minot, tilning funksional doirasi, algoritm va kompyuter dasturlari, qidiruv mashinasi

KIRISH

XX asming o‘rtalarida kibernetikaning rivojlanishi fan tarixida kuzatilmagan tutash sohalar kesimidagi yangi fanlarning shakllanishiga asos bo‘Idi. Jumladan, biologiya va injeneriya fanlari kesimida bionika fani yuzaga keldi. Hisoblash texnikasi va lingvsitika kesimida bir qator nomlar bilan atalgan tutash soha vujudga keldi. Bu fan dastlab, matematik lingvistika, struktur lingvistika, hisoblash lingvistikasi deb nomlangan. Hozirda kompyuer lingvistikasi degan muqim nomga ega boldi. Bu fanning shakllanishida ikki omil qayd etiladi: 1) lingvist tadqiqotchilar zamonaviy aniq fanlar (asosan, matematika) lingvistikada yetishmayotgan aniqlikni ta'minlashda yordam berishiga umid bildirdilar. EHM ning paydo bo`lishi bu umidni mustahkamladi. Ko‘pgina tilshunoslarga avval boshdanoq kompyuter nafaqat tez ishlaydigan arifmometrlar, balki matn ustida bajariladigan amallami avtomatlashtirishning qudratli vositasi ekanligi ma'lum bo‘ldi.

Ko‘p mehnat talab qiladigan jarayonlami avtomatlashtirish imkoniyati yuzaga keldi. Masalan, matnlarni statistik tahlil qilish, turli lug‘at va leksik kartotekalarni to‘plash avtomatik tizim asosida olib borildi; 2) kompyuter paydo bo`lgach ular bilan aloqaga kirishishga hali tayyor bo‘lmagan foydalanuvchilarning muloqotini ta'minlash muammosi tug`ildi. Bunday foydalanuvchilar uchun eng maqbuli kundalik faoliyatlaridagi tabiiy til hisoblanar edi. Ammo bu tarzdagi o‘zaro munosabatni tashkil etish uchun, dastavval, insonlaming o‘zaro muloqot jarayonida tabiiy tildan foydalanish qonunlari va xususiyatlarini tushunish kerak bo‘lar edi. An'anaviy tilshunoslik bu masalalar bilan shug‘ullanmagani ma'lum bo‘ldi.

ASOSIY QISM

Kompyuter lingvistikasi - kompyuter uchun mo`jallangan lingvistik ta'minot (kompyuter lingvistika imkoniyatlari subyekti sifatida maydonga chiqadi. Kompyuter lingvistikasi - kompyuterda bajariladigan lingvistika. Kompyuter lingvistikasining muhim tushuncha kategoriyalaridan “freymlar” (vaziyatning tematik tipiklashgan bilimlar deklarativ namoyishi uchun mo‘Ijallangan kotseptual strukturalar) , “ssenariy” (stereotip vaziyat yoki

This work is published under **CC BY-NC-ND 4.0**

stereotip xulq haqidagi bilimlar namoyishi uchun taqdim qilingan konseptual strukturalar), “plan” (aniq maqsadlardagi yutuqlarga olib boruvchi bilim strukturasi, imkoniyatlar) bir qator masalalaming yoritilishiga xizmat qiladi. “Kompyuter lingvistikasi”ningmaqsadi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

a) kompyuter lingvistikasi fani inson va mashina (kompyuter)ning o‘zaro aloqa-munosabatga kirishuviga asos bo‘ladi;

b) turli hududlarda yashayotgan kishilaming o ‘zaro maqsadli muloqotiga imkoniyat yaratiladi;

d) kompyuter lingvistikasining asosiy ish vositasi hisoblangan axborot uslubi dunyoda yuz berayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy yangiliklarning tezkor va aniq shaklda yetkazilishini ta’minlaydi.

Kompyuter lingvistikasining asosiy vazifalari tillarni o ‘qitish, bilimlarni tekshirish, matnlarni tahrirlash, tahlil qilish, avtomatik tahrir, mashina tarjimasi dasturlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Kompyuter lingvistikasi kompyuterdan unumli foydalanish hamda lingvistikaga doir masalalar (axborot uslubini o‘zlashtirish, tilning funksional doirasi haqida bilimga ega bo‘lish, tillami o‘qitish, bilimlami baholash, matnlami tahrir va tahlil qilish, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish)ni kompyuter vositasida hal qilish yo‘llarini belgilash, kompyuter savodxonligi darajasini oshirish, mantiqiy to‘g‘ri, izchil fikrlashga o‘rgatish, nazariy bilimlami shakllantirish va muayyan yo‘nalishlar bo‘yicha amalda qo‘llashga oid ko‘nikmalami hosil qilishni nazarda tutadi.

Shuningdek, ushbu kurs talabalarda kompyuter lingvistikasi bo‘yicha chuqur bilimlarni shakllantirish, kompyuter lingvistikasi tamoyillarini o‘zlashtirish, tabiiy tilni matematik modellashtirish, formallashtirish, matematik aniqlikdagi fikrlashga o'rgatish, til va adabiyotga doir kompyuter dasturlari uchun ma’lumotlar bazasini yaratish, algoritm va kompyuter dasturlari tuzish asoslarini ishlab chiqish kabi vazifalami belgilaydi.

“Kompyuter lingvistikasi” fanining asosiy masalalari doirasida ma’lumotlar berishda:

- kompyuter lingvistikasi predmeti, vazifalari; kompyuter lingvistikasining ijtimoiy va tabiiy fanlar orasidagi o‘mi va mohiyati; kompyuter lingvistikasiga doir tadqiqotlar, aksiomatik nazariyaning tilshunoslikka tatbiqi; matematik mantiq elementlari; til o‘rgatish jarayonini avtomatlashtirish; tabiiy tillami qayta ishlash, tillarning matematik modelini yaratish; avtomatik tahrir va tahlil haqida tasavvur hosil qilish;

- matematik mantiq asoslarini; matematik mantiq asoslarining tilshunoslikka tatbiqini; Avtomatik taijima algoritmini; avtomatik tahrir dasturining Ishlash tamoyilini; o‘zbek tilining matematik modellarini; o‘zbek tilining kompyuter uslubini; o‘zbek tili grammatikasi ta’limi, bilimlami baholash dasturlariga oid me’yoriy va amaliy ma’lumotlami o‘zlashtirishni; o‘zbek tili grammatikasining formallashadigan qismi uchun model tuzishni bilish va ulardan foydalana olish;

-tabiiy tillaming matematik modeli, o ‘zbek tilining matematik modeliga doir masalalami yoritish; axborot uslubi, o ‘zbek tilining kompyuter uslubi xususiyatlarini farqlash; o‘zbek tili grammatikasining ma’lumotlar bazasini yaratish; matnni avtomatik tarjima qilish; matnni avtomatik tahrir va tahlil qilish; kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlami o

This work is published under **CC BY-NC-ND 4.0**

‘rganish, nazariy ma’lumotlami umumlashtirish; kompyuter Iingvistikasi fanining istiqboli va dolzarb masalalariga doir fikrlar bildirish va tadqiqot olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘Iish kabilar nazarda tutiladi.

XULOSA

Kompyuter Iingvistikasi tabiiy tilning kompyuter imkoniyatlari asosida reallashadigan ko`rinishidir. Sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv lingvistika tilshunoslik sohalari bo‘lgani kabi kompyuter Iingvistikasi ham tilshunoslikning yangi yo‘nalishidir. Kompyuter Iingvistikasi — informatsion texnologiyalar sohasi bilan chambarchas bog‘liq yangi yo‘nalish hisoblanadi. Keyingi yillarda yaratilgan dasturlar - qidiruv mashinasi, dialog tizimi, axborot boshqamvini avtomatlashtirish, matnlami avtomatik tahrirlashni takomillashtirish til, til tizimi imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq foydalanishni talab qiladi. Kompyuter lingvistikasining asosiy o ‘rganish doirasini aynan ijtimoiy taraqqiyot asosidagi ehtiyoj - mashina tushuna oladigan va qayta ishlashi mumkin bo‘lgan tabiiy til modelini yaratish tashkil etadi.

ADABIYOTLAR

1. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari –T.: Fan, 1953. –16 b
2. Холиёров Ў. Ўзбек тили таълимий корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) …дисс. – Термиз, 2021. – Б 38.
3. Холиёров Ў. Ўзбек тили таълимий корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) …дисс. – Термиз, 2021. – Б 39.
4. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari –T.: Fan, 1953. –30 b.

This work is published under **CC BY-NC-ND 4.0**